

TARIX DARSLARIDA TA'LIM VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xojiqurbonova Gulandon Shodilbekovna

31 maktab tarix fani o'qituvchisi Andijon viloyati Oltinko'l tuman

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix darslarida ta'lim vositalaridan foydalanish, tarixni o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, tarix o'qitishning ko'rsatmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, tarixiy faktlarni o'ziga xos xususiyati to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tarix darslari, ta'lim vositalari, innovatsion-pedagogik texnologiyalar, tarix o'qitish metodikasi.

Kirish: Ma'lumki, insoniyatning uzoq yillardagi tarixi va tarixiy taraqqiyoti jarayonlariga hamda madaniyati va ma'naviy, ilmiy xazinasiga bebaho hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizga, xalqimizning minglab farzandlarining yurt mustaqilligi, taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi yo'lidagi faoliyati va ular qoldirgan merosga munosib bo'lish xohishi jamiyatimiz a'zolari orasida tarixiy xotira va tarixiy ong sifatida keng tarqalishi, har bir kishining ongidan mustahkam joy olishining ta'minlanishi zamonaviy tarix fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: O'quvchilarda tarix ta'limi orqali tarixiy tafakkurni, tarixiy xotira tuyg'usini rivojlantirish orqali ularni o'z oilasi, davlat va jamiyat oldida mas'uliyatini his qiladigan, o'z bilimi va intellektual salohiyatiga tayanadigan faol fuqarolar qilib tarbiyalash kerak. Ya'ni, o'quvchilarda tarix ta'limi orqali tarixiy tafakkurni, tarixiy xotira tuyg'usini takomillashtirish orqali ularni o'z oilasi, davlat va jamiyat oldida mas'uliyatini his qiladigan, o'z bilimi va intellektual salohiyatiga tayanadigan faol fuqarolar qilib tarbiyalash zarur. Tarixni o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni foydalanish uchun kerak bo'lgan metodik bilim,

malakalarni rivojlantirishdan iboratdir. Tarixni bilish jarayoni tarixiy ma'lumotlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. Tarixiy faktlarni o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular hech qachon aynan takrorlanmaydi. Shu bilan birga o'quvchilar tomonidan alohida tarixiy faktlarni bilib olish-tarixni o'zlashtirdi degan tushunchani ifoda etmaydi. Faktlar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik bo'lmasa, u holda faktlarning oddiy majmuasi bilimlarni formallashtiradi va tarixiy materiallarni ongli tarzda o'zlashtirilishiga xalaqit beradi.

Natijalar: Ta'limni muayyan pedagogik maqsadga yo'naltirish uchun o'qituvchi o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitishning maqsadini, uning asosini tashkil etgan ta'lim-tarbiya vazifalarini aniq belgilab olishi zarur. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o'qitiladigan tarix kursining o'ri, vazifalari, o'z o'rnida ushbu kursni o'qitishning ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo'limi, bo'limdagi mavzular, hatto har bir darsda o'tiladigan mavzuning ham juz'iy vazifalari oldindan belgilab olinishi lozim. Sababi har bir tarix darsining butun tarix kursining umumiy darslar sistemasida tutgan o'ri mavjud, bu darsda o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida tarix o'qitish oldiga qo'yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo'lagi hal qilinadi. Tarix o'qitish maqsadlarini belgilashda, dastlab ta'lim va tarbiyaning uzviy birligini, o'qitish mobaynida o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy saviyasi muttasil o'sib borishini, ularda malaka va ko'nikmalar hosil qilishni, shuningdek ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq zarur. Ta'limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli shaklda amalga oshishi uchun, ular ilmiy asosda belgilanishi darkor. Bu maqsadlar tarix ta'limining mohiyati va vazifalari bilan belgilanadi. Binobarin, bunda ta'limning boshqa shart-sharoitlari: o'quvchilarning saviyasi, bilimi, ko'nikmalari va malakalari, dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o'tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi.

Muhokama: Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi tarixchi pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo'lishlari uchun va kasbiy faoliyatni tashkil qilishda ulardan foydalanishga kompetentsiyaviy yondashuvni rivojlantirishi talab qilinadi. Tarix o'qitish metodikasidan egallangan bilimlarni o'quv jarayoni davomida muvaffaqiyatli foydalanish, bunda esa tarixchi pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil qila olishi asosiy ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni

tashkil qilishda metodik faoliyatni tashkil qilish, metodik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor berish zarur. Tarix darslari samaradorligini oshirib borish uchun o'qituvchi tarix fanining takomillashib borishini sistemali ravishda kuzatib bormog'i kerak. Ayniqsa yuqori sinf o'quvchilarini tarixdan chop etilayotgan yangi asarlar mohiyati bilan tanishtirib borishlari o'quvchi yoshlarda tarix o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'sishga olib keladi. Tarix o'qitishning ko'rsatmali bo'lishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham yuqori. Avvalo, ko'rsatmali qurol o'quvchilarning bilim olishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ko'rsatmali tasvirlar tarixiy fakt va hodisalarning tashqi ko'rinishini emas, balki ularning ichki mazmunini ham ochib beradi. Ko'rsatmali qurollar o'quvchilarning murakkab tarixiy hodisalarini, tarixiy tushunchalarning ma'nosini ancha osonroq tushunib olishlariga yordam beradi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tarixiy fakt va bilimlarni aniq va o'z o'rnida kerak bo'lgan formada va usullarda foydalana bilish nihoyatda dolzarb vazifa sanaladi. O'zbekistonning o'z mustaqilligiga erishganligi, tarixchi, tarixchi-metodist olimlarimiz va tajribali tarix o'qituvchilari oldida O'zbekiston va Jahon tarixi fanlaridan davrimiz talabi darajasidagi darsliklarni eksperiment yo'li bilan tajribasida sinab ko'rgan, maktab yoshlarini ma'naviy tomondan kamolotga yetishini ta'minlaydigan, ilmiy-uslubiy va didaktik jihatdan to'laqonli darsliklar yaratishni taqazo qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Sagdiev A. va boshqalar. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2008.
2. F. Sh. Aqchayev. Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar. Oquv-uslubiy qo'llanma. Jizzax-2014.
3. Sodiqovna S. G. Tarix darsini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish// Ijodkor o'qituvchi. – 2022.
4. Toshpo'latov T., G'afforov Y. Tarix o'qitish metodikasi. Toshkent, 2002.
5. J.I Suyundikovich. Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. Fan va ta'lim. 2020.